



SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “DINOZAVR” ROMANI QAHRAMONLARINING BADIY TALQINI

Ismoilova Gulsevar Odil qizi

Samarqand davlat pedagogika institute O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Tillar kafedrası o'qituvchisi Usarova Laylo Ibragimovna

Annotatsiya

Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning “Dinozavr” romanidagi asosiy va ikkinchi darajali obrazlar tahlili yoritiladi. Muallif yaratgan Mahkam, Shahlo, Sobit, Toyirov, Jamoliddin kabi qahramonlarning psixologik portreti, ularning asar g'oyasini ochishdagi o'рни, jamiyatdagi o'zgarishlar davomida shakllangan ziddiyatlar batafsil tahlil qilinadi. Maqolada romanning asosiy konflikti- eski va yangi avlod qarashlarining to'qnashuvi, ma'naviy qadriyatlarning yemirilishi, insoniylik, halollik va zamonga moslashuv muammolari obrazlar tizimi orqali ochib berilgani ilmiy asosda ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot davomida adibning badiiy mahorati, ramziy timsollar, psixologik tasvir alohida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: obrazlar talqini, davr, ziddiyat, qahramon, o'zbek prozasi, psixologik tasvir, jamiyat va inson, zamon va xarakter ziddiyati.

Shukur Xolmirzayev XX asr ozbek nasrining yirik vakillaridan bo'lib, o'z asarlarida inson ruhidagi ziddiyatlar, inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqliklar va hayvonot olami tasvirini badiiy mahorat bilan yoritib bera oladi. Uning “Dinozavr” romani ham ana shu ruhda yozilgan bo'lib, asar eski va yangi avlod vakillari o'rtasidagi murakkab jarayonlarni obrazlar tizimi orqali ochib beradi. “Dinozavr” romani Shukur Xolmirzayevning eng suygan, bo'lakcha mehr qo'ygan asari bo'lib, bejiz “Dinozavr”ni o'zimning suyangan tog'im, ishongan bog'im deb hisoblayman” demagan edi. Shukur Xolmirzayev yana asar haqida toxtalarkan uning kirish qismida “ – Hayotdagi anchayin o'zgarishni ham hazm va qabul qilish oson kechmaydi: ko'nikmalar-qanoatlar bu yo'lda teran to'siqlar hisoblanadiki, avvalambor, ana o'shalarni “yengish”ga to'g'ri keladi....” deb keltirib o'tadi. Adib yashagan vaqt bilan asar yaratilgan vaqt bir paytga to'g'ri keladi. Adib atrofida bo'layotgan o'zgarishlar, kechinmalardan kelib chiqib asarni yozadi. Asar yozilgan payt 1996-yil, mustaqillikdan 5 yil o'tib jamiyat va insonlar o'rtasidagi yangicha davrga moslashish jarayonlari asar syujeti, obrazlari orqali ochib beriladi.



Asarning bosh qahramoni Mahkam obrazi orqali adib Sho'ro tuzumiga o'rganib qolgan va uning siyosatini hamma uchun manfaatli ekaniga astoydil ishongan insonning hayoti va ichki olamidagi ziddiyatlar kurashi asar mavzusining markazida turadi. U "dinozavr" timsoli orqali ramziy ma'no kasb etadi. Mahkam sobit e'tiqodli, mehnatkash, vijdonan yashaydigan inson. Uning qarashlari mustahkam, hayotga halollik bilan yondashadi. Shu paytgacha nimaiki maqsad qilsa erishayotgan, qanday yashashni xohlagan bo'lsa shunday hayot kechirayotgan, o'zi istagandek ijod qilib kelayotgan edi. U yangi davr talablari, zamon odatlariga moslasholmaydi. Shuning uchun u jamiyatda "keraksiz", "ortiqcha" odamdek tuyuladi. Ayni vaziyatda Mahkamning xarakterida ikki tomon mavjud edi. Birinchisi- zamon talabi bilan yashashga intilayotgan yosh avlod vakili va ichki dunyosida qadriyatlar bilan kurashayotgan inson. Muallif obraz orqali qadriyatlar tugab borayotgan davrda "so'nggi halol odam" timsoli sifatida talqin qiladi. Uning xarakteri jamiyatning ma'naviy inqirozi va qadriyatlar yemirilishi haqida ogohlik beradi. Mahkamning ichki dialoglari, o'ziga-o'zi berayotgan savollari, atrofdagi odamlarga bo'lgan ishonchi asta-sekin yo'qolib borishi romanning dramatik kuchini oshiradi. Shahlo Mahkamning turmush o'rtog'i, yangi davr vakili sifatida gavdalanadi. Asarda Mahkam va Shahlo o'rtasidagi ziddiyatlar- eski va yangi zamon to'qnashuvi sifatida talqin qilinadi. Ular o'rtasidagi to'qnashuvlar romanning asosiy konfliktini tashkil etadi. Shahlo uchun eng muhimi mol-davlat, ko'rinish, foyda edi. U zamonning talablariga moslashishga intiladi va vijdon, hurmat, oila, halollik, qadriyat kabi tushunchalarni unutib qo'yadi va yangi davr vakili farzandi Sobitni ham shu ruhda tarbiya qilishni xohlaydi. Muallif Shahlo obrazi orqali zamonaviy insonning dolzarb muammolarini- mansabparastlik, kibr-u havo, qadriyatlardan uzoqlikni aks ettiradi.

Asardagi epizodik obrazlardan biri sifatida ishtirok etgan Jamoliddin obrazi yangi davrga tez moslashgan ammo insoniy qadriyatlarni unutmagan inson sifatida talqin qilinadi. U vijdonan pok, ko'ngli ochiq, mansabga berilmagan inson edi. Davr o'zgarishi insonlarning ma'naviyatiga, ruhiy olamiga aloqador emasligini ochib beradi. Unga qarama qarshi qilib esa Toyirov obrazini ko'raylik, zamon o'zgarishini niqob qilib olgan, faqat o'z manfaatini o'ylaydigan inson sifatida gavdalantirilgan bu obraz insoniy fazilatlarni unutib qo'ygan, ilmida qoloq, uning "hoji" deyilishi bilan u qilayotgan amallar tamomila bir birini inkor etardi. Asarda Mahkam so'zida keltirib o'tilgandek "Agar u namozxon bo'lganda ichkilik ichmasdi va namozini qazo qilmas edi". Bu zamon o'zgarishi ba'zi bir insonlarga yomon ta'sir qilganidan dalolat beradi. Shukur Xolmirzayevning "Dinozavr" romani- bu nafaqat bir inson hayoti, balki bir avlod taqdiri, bir jamiyatning ma'naviy qiyofasi haqida o'yga chorlovchi asardir. Mahkam esa ushbu asarning yuragi, uning eng og'riqli nuqtasidir. Mahkamning fojeasi- uning halolligida, vijdoniga sodiqligida emas, balki shu fazilatlarni qadrlay olmagan jamiyatning



o'zida. Adib Mahkam qismati orqali o'quvchiga shuni eslatadi: jamiyatning asl boyligi-moddiy imkoniyatlar emas, balki vijdonli, dadil, haqiqatdan qo'rqmaydigan insonlaridir. Shunday odamlar yo'qolganda esa jamiyatning o'zi "dinozavr"ga aylanadi: katta, kuchli, lekin asta-sekin yo'qolib boradigan mavjudot singari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 .SH.Xolmirzayev. Dinozavr. "Yoshlik" 1996, 2-son.
2. Mirvaliev.S. O'zbek adiblari. -T.: "Yozuvchi", 2000.
3. Karimov.N. va b.q. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi.- T.: "O'qituvchi", 1999.
4. Ziyoz.uz.com sayti.